

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND
FILIALI
SAMARQAND DZYUDO FEDERATSIYASI**

**Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib
etish hamda ularni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish
yuzasidan hamkorlik qilish to'g'risida
HAMKORLIK MEMORANDUMI**

Samarqand shahri

“___” _____ 2025-yil

Samarqand dzyudo federatsiyasi hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 13-fevral kuni Olimpiya va Paralimpiya harakatlarini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan viseoelektor yig'ilishida belgilangan topshiriqlari ijrosini ta'minlash, jumladan, talabalarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanilishi tashkil etish hamda ular orasida sportning olimpiya turiga kiruvchi dzyudo turi bo'yicha tadbirlarni o'tkazish borasida o'zaro hamkorlikni amalga oshirish to'g'risida kelishib olindi:

I bob. Memorandumning maqsadi

Tomonlar hamkorligida respublikamizda dzyudo yakka kurash turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek, Samarqand dzyudo federatsiyasi (keyingi o'rinda federatsiya) tomonidan musobaqalarni tashkil etish, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali hududida dzyudo sport turi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi va terma jamoalarini (keyingi o'rinda terma jamoalar) hakamlik kurslari tashkil qilish hamda shu kurs talabalarini O'zbekiston ichki musobaqalarida malaka oshirishlari, hakamlik amaliyotlarini bajarish hamda turli toifadagi musobaqalarni o'tkazish uchun asosiy baza yaratilishi, yetuk razryadli sportchilarni oliygohga jalb etish hamda kiritish, oliygohda hakamlar seminari, trenerlar seminari o'quv-mashg'ulotlarni tashkil qilish maqsadida o'zaro va teng huquqli hamkorlik qiladilar.

II bob. Hamkorlik yo'nalishlari

2. Tomonlar o'z vakolatlari doirasida va ushbu memorandum asosida kelishib oldilar:

a) Dzyudo sport turi bo'yicha terma jamoalar ishtirokida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali hududida ommaviy dzyudo musobaqalari, o'quv mashg'ulot yig'inlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish;

b) Dzyudo rivojlantirish sohasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlarni, dzyudo sohasidagi ta'lim muassasalarining bugungi holati va boshqa ma'lumotlarni muvofiqlashtirish uchun ma'lumot almashish;

v) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali va federatsiya xodimlari o'rtasida aloqalarni o'rnatishga ko'maklashish, ular o'rtasidagi sheriklik aloqalarini rivojlantirishga ko'maklashish;

g) Tomonlarning o'zaro qiziqishi bo'yicha seminarlar, ko'rgazmali chiqishlar, maslahatlashuvlar, uchrashuvlar, konferensiyalar va treninglar o'tkazish;

d) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dzyudoni rivojlantirishga va umumta'lim muassasalari o'quvchilari uchun o'quv mashg'ulotlar dasturlarni ishlab chiqishga ko'maklashish;

e) Tomonlarning xodimlari o'rtasida tajriba almashish, o'qituvchi-trenerlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda testlar ishlab chiqish hamda malakalarini sinovdan o'tkazish;

j) master-klasslar o'tkazish, mahalliy murabbiylar va mutaxassislarni tayyorlash uchun O'zbekistondan malakali trenerlar, xalqaro instruktorlarni va taniqli vakillarini jalb qilish;

z) Zarur bo'lganda, hokimlik, umumta'lim va sport maktablari bilan ushbu memorandum doirasida xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnomalar tuzish;

i) Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha, sport jihozlari, sport inshootlari va boshqa faoliyatlarni amalga oshirish.

3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali quyidagi huquqlarga ega:

a) sport tadbirlari, festivallari va boshqa tadbirlarni birgalikda tashkil etish va tomoshabinlar bilan ta'minlash;

b) Dzyudo bo'yicha sport musobaqalari va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish, g'olib va sovrindorlarni aniqlash, ularni taqdirlash hamda iqtidorli ishtirokchilarni nufuzli musobaqalarda ishtirok etish uchun tavsiya qilish;

v) mahallalar hududida dzyudo sport turi bilan shug'ullanish imkoniyatiga mavjud maydonlar va inshootlarning hozirgi holati, bo'yicha ushbu memorandumga muvofiq federatsiyaga tegishli choralar ko'rishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish;

g) Xalqaro musobaqalarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, xalq ta'lim vakillari, mahalla faollari, volontyor, tomoshabin va fan klubi a'zosi sifatida ishtirok etish.

d) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialidan tashqari joylarda dzyudo sport turi bo'yicha seksiyalar, klublarini tashkil etish hamda nazorat qilish;

e) Qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa vakolatlarga ham ega.

4. Samarqand dzyudo federatsiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali zarur sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlashda ko'maklashish, malakali murabbiylar tayyorlashda yordam berish va o'quvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar berish;

b) o'quvchilar o'rtasida musobaqalar va tadbirlar tashkil qilish hamda rahbarlik etish;

v) xalqaro mutaxassislarni jalb qilish orqali seminarlar, ko'rgazmali chiqishlar, mahorat darslari, treninglar tashkil etish, shuningdek, sport seksiyalari uchun o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqarish va tadbiq etish;

g) qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa vakolatlarga ham ega.

5. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali quyidagi majburiyatlarga ega:

a) Ta'lim muassasalarida sportning dzyudo turini targ'ib qilish;

b) Umumta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida dzyudo musobaqalarini o'tkazish to'g'risida ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari, veb-saytlari yordamida reklama qilish, mahalliy gazeta, jurnallarda keng yoritish;

v) Mahalliy hokimiyatlarga sportning dzyudo turini rivojlantirish va yengil atletikachilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha takliflar kiritish va ushbu takliflarni amalda bajarilishini nazorat qilish.

g) Dzyudo sport turi bo'yicha O'zbekiston terma jamoalari va milliy terma jamoalari tomonidan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulot yig'inlari hamda musobaqalar o'tkazilganda ushbu jamoalarga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ochiq sport maydon va yopiq sport zallaridan va bepul foydalanishini tashkillashtirish.

6. O'zbekiston dzyudo federatsiyasi quyidagi majburiyatlarga ega:

a) Jismoniy tarbiya va madaniyat bo'yicha o'qituvchilarining bilimlarini oshirish uchun dzyudo kurslarini tashkil qilish hamda bilim saviyalarini tekshirish maqsadida test sinov mashqlaridan o'tkazish;

b) Umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalar va o'smirlar orasidan iqtidorli tanlab olishda joylardagi sport boshqarmalari ko'magida seleksiya ishlarini tashkil etish va o'tkazish.

7. Tomonlar o'z vakolatlari doirasida va ushbu memorandum asosida quyidagi majburiyatlarga ega:

a) Ushbu memorandum ko'rsatmalariga muvofiq axborot almashuvi ikki tomonlama nazorat ishlari olib borish;

b) Respublika, viloyat va tuman miqyosidagi tadbirlarni tashkil etish va dzyudo mashg'ulotlari uchun mutaxassislarni jalb qilish.

III bob. Muvofiqlashtiruvchi organlar va maxfiylik

8. Ushbu Memorandumni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori va federatsiya raisining o'rinbosari tomonidan tayinlanadi. Zarur

bo'lganda, tomonlar hamkorlikning turli sohalarida ishchi guruhlarini yaratish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi mumkin.

9. Tomonlar, agar boshqa tomon talab qilsa, birgalikdagi faoliyat davomida bir-birlariga berilgan ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlashlari shart.

IV bob. Memorandumning kuchga kirishi, amal qilishi va o'z kuchini yo'qotishi

10. Ushbu memorandum asosiy bitim sifatida ko'rib chiqilishi va har ikki tomon imzolagan kundan boshlab kuchga kirishi kerak.

11. Memorandum tomonlar uni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar o'z kuchlarini saqlab qolishadi, bu to'g'risida bitimdan bir oy oldin bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

V bob. Boshqa shartlar

12. Mazkur memorandumning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar har uch oyda bir marotaba tomonlar o'tasidagi yig'ilishda ko'rib chiqiladi.

13. Mazkur memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va ikki yil davomida amal qiladi.

14. Mazkur memorandum tomonlardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tomonni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish orqali bekor qilinishi mumkin.

15. Mazkur memorandum bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki asl nusxada o'zbek tilida tuzilgan va tomonlarning har birida bir nusxadan saqlanadi

**Samarqand dzyudo
federatsiyasining ijrochi
direktori**



M.Nabiyev

Samarqand sh.,

“ ” mart 2025-yil

**Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti Samarqand filiali
sport klub raisi o'rinbosari**



Sh.S.Mizomov

Samarqand sh.,

2025 yil _____,

— son